



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

XAQARO BAHOLASH DASTURLARI (PISA, TIMSS, PIRLS) ULARNI AMALDA QO'LLASH

Toshev E.Ch. Surxondaryo viloyati Pedagogik mahorat
markazi boshlang'ich ta'lim metodisti.

Xalqaro baholash dasturlari: PISA, TIMSS, PIRLS



Mamlakatimiz innovatsion rivojlanish yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni, ularning bilim va ko'nikmalarini xorijiy ta'lim standartlari asosida shakllantirish, o'qish savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy aniq mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

R E J A.



-
- Kirish
- PISA, TIMSS, PIRLS
- Xalqaro baholash dasturlarini amalda qo'llash
- Xalqaro baholash dasturlarining kamchiliklari va muammolari

Xulosa

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) ta'lim tizimlarining samaradorligini baholash va ta'lim sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Ular dunyoning turli mamlakatlarida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini taqqoslashga imkon beradi. Ushbu dasturlarni amalga oshirish va natijalaridan foydalanishning dolzarbligi quyidagi asosiy nuqtalarda ko'rinadi: Ta'lim sifatini yaxshilash, global ta'lim tizimlarining raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatlar o'rtasida ta'lim tajribasini almashish, ta'limdagi ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish, o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish.

Shu tarzda, PISA, TIMSS va PIRLS dasturlarini amalga oshirish va ularning natijalarini amaliyotda qo'llash mamlakatlarning ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning bilimlarini oshirish va global ta'lim miqyosida muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

PISA

– 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

TIMSS


– 4- va 8-sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

PIRLS

– boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

TALIS

– rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish;





PISA – turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika, tabiiy fanlar savodxonligini hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur **3** yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Unda o‘quvchilarning bilim sifati o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha monitoring qilinadi va **1000** ballik tizimda baholanadi.

Dastlab **1997**-yilda ishlab chiqilgan va **2000**-yilda birinchi marta qo‘llanilgan.


PISA dasturi asosiy to‘rtta yo‘nalishda: o‘qish savodxonligi, aniq fanlar, tabiiy fanlar savodxonligi va bu yil **raqamli dunyoni o‘rganish** yo‘nalishlari bo‘yicha olib boriladi.

PISA dasturi maqsadi

O'quvchilarning kelajakda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega ekanligini aniqlash.



TIMSS – maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Mazkur dastur 4-8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi, sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Mazkur dasturning o'ziga xosligi shundaki, u dunyodagi maktablarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'qituvchilarning bilim darajasi, oilaviy muhiti bilan bog'liq omillarni o'rganadi.



PIRLS – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

PIRLS - o‘qish maqsadlarining har birida to‘rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish, g‘oyalar va axborotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilishdir.

PIRLS: O'qish savodxonligini baholash

O'qish savodxonligining maqsadi:

- badiiy tajriba orttirish;
- axborotni olish va undan foydalanish.

Tushunish jarayoni:

- diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish;
- g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish;
- kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.



PIRLSDA HAR BIR O‘QISH MAQSADLARI VA TUSHUNISH JARAYONLARINING ULUSHI

O‘QISH SAVODXONLIGINING MAQSADI	PIRLS
Badiiy tajriba orttirish	50%
Axborot olish va undan foydalanish	50%
TUSHUNISH JARAYONI	PIRLS
Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish	20%
To‘g‘ridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish	30%
G‘oyalar va axborotni talqin qilish hamda uyg‘unlashtirish	30%
Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish	20%

O'QISH SAVODXONLIGI NIMA?



O'qish savodxonligi deganda shaxsning ona tili va adabiyot fanlarga oid g'oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida hayot bilan bog'liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi. O'qish savodxonligi bo'lgan shaxs matematika, tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi.

O'QISH SAVODXONLIGI MAQSADI



Badiiy tajriba
orttirish



Axborot olish
va undan
foydalanish

“Aljabr” matni asosida mantiqiy topshiriqlar

Riyoziyot olimi al-Xorazmiydan inson haqida so‘rashdi. Olim shunday dedi: Agar inson yaxshi xulq sohibi bo‘lsa, u 1 ga teng. Agar inson husn sohibi bo‘lsa, birning yoniga nolni qo‘shamiz, 10 bo‘ladi. Agar inson boy bo‘lsa, yana bir nolni qo‘shamiz – 100 bo‘ladi. Agar nasl-nasabli bo‘lsa, yana bir nolni qo‘shamiz-1000 bo‘ladi. Agar 1 raqami yo‘q bo‘lib ketsa, insonning qiymati yo‘qqa chiqib, nollarning o‘zi qoladi.



1-topshiriq:

Javobi tanlanadigan test.

Al-Xorazmiy insonning qanday fazilatini 1 ga tenglashtiradi?

A.Uning nasl-nasabini

B.Yaxshi xulqini

S.Husn sohibi ekanligini

D. Boyligini



2-topshiriq:

Bir necha javobli test.

1-savol

Al-Xorazmiy insonni yaxshi xulqli, chiroyli va boy bo'lishini uch xonali songa tenglashtiradi.

HA-YO'Q

2-savol.

Agar yaxshi xulq yo'q bo'lib ketsa, 3 xonali son 2 xonali songa almashadi.

HA-YO'Q

3-savol.

Xorazmiy ushbu ajoyib tenglamada insonning qiymati, avvalo, yaxshi xulqi bilan o'lchanishini ta'kidlayapti.

HA-YO'Q



4-topshriq:

Javobi yoziladigan test:

RIYOZIYOT so'zi hozirda qaysi fanni bildiradi?

Javob: (Hozirgi matematika fani)



4-topshiriq:

Lingvistik topshiriq;

Matn mazmunidan kelib chiqib, bir o'rinda **va** bog'lovchisini, yana bir o'rinda **ham** bog'lovchisini qo'llang. Qo'llangan bog'lovchilar matn mazmuniga ta'sir ko'rsatmasin.



Javob: Agar inson yaxshi xulq sohibi va chiroyli bo'lsa, uning qiymati 10 ga teng. Agar inson ham yaxshi xulq sohibi bo'lsa, ham chiroyli bo'lsa, uning qiymati 10 ga teng.

Xalqaro baholashning ahamiyati

1

Ma'lumotlar bazasi:

Ta'lim sifatini oshirish uchun ma'lumotlar bazasini yaratish.

2

Kamchiliklarni bartaraf etish:

Ta'lim tizimidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish.

3

Ta'lim siyosati:

Ta'lim siyosatini takomillashtirish uchun asos yaratish.

4

Xalqaro tajriba:

Xalqaro tajribani o'rganish va o'zlashtirish.

Xalqaro baholash dasturlarining kamchiliklari va muammolari

Xalqaro ishlab chiqarilgan dasturlar, asosan, ta'lim tizimlarining sifatini oshirish, o'quvchilarning bilimini o'lchash va ta'limni yaxshilashni rejalashtirgan. Ammo bu rejalarni ba'zi dasturlar hisobga olmagan.

Xalqaro baholash dasturlari ko'pincha o'zaro nisbiylashgan bo'lsada, ular har bir mamlakatning madaniyat va til haqidagi ma'lumotlari yetarli emas. Bu ayniqsa til va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni umumiy olmagan holda o'rnatilgan testlarni bajarishda adolatsizlik qilish mumkin.



● FAN METODISTLARI, INSPEKTOR-METODISTLAR

● MALAKA OSHIRISH TIZIMI

● MAKTAB RAHBARIYATI

● FAN O'QITUVCHILARI

● OTA-ONALAR

● O'QUVCHILAR



XULOSA

Bu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berib kelajakda muvaffaqiyatli va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

PISA va **TIMSS** o'rtasidagi asosiy farq. **PISA** va **TIMSS** dasturlarining asosiy farqi eng avvalo ularning turli xil yosh va sinflar toifasida o'tkazilishidan iboratdir.



E'tiboringiz uchun
rahmat!

